
VELOMARAFON O'TKAZILDI

Prezidentimizning 2020 yil 30 oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, aholi, ayniqsa, uyushmagan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida tuman hokimligi, tuman sportni rivojlantirish bo'limi, va tuman IIB bo'limi tashabbusi bilan "Sohibi Hidoya" ziyoratgohi yo'li bo'ylab 3 kilometr masofali yo'lda tashkil etilgan "Velomarafon"da uyushmagan yoshlar vakillari sport murabbiylari ishtirok etishdi.

Tadbirda so'z olganlar tomonidan mamlakatimizda, xususan, Rishton tumanida sportning ommaviyligini oshirish, yoshlarni sportga jalb etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilayotganligi ta'kidlandi.

- Davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan qarori ijrosi doirasida joriy yilda yoshlar o'rtasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, stol tenisi, shaxmat-shashka, yengil atletika turlari bo'yicha musobaqalar doimiy ravishda o'tkazilib kelinmoqda, - deydi tuman sportni rivojlantirish bo'limi rahbari Husanboy Abduqodirov.

Tadbirda qatnashgan yoshlar bundan buyon o'zlari yashayotgan mahallalarda tengdoshlarini sportga jalb etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yaqindan yordam beradi. Tadbir doirasida yugurish musobaqasi, ommaviy gimnastika mashg'ulotlari o'tkazilganligi yoshlarga yanada ko'tarinki kayfiyat va shijoat bag'ishladi.

2022-09-17 06:20:48